

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI MUAMMO
JANRI FRANSUZ OLIMLARI VA TARJIMONLARI
TADQIQIDA**

Kurbanova Gulchiroy Ravshanovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

3-bosqich talabasi

qurbonovagulchiroy2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk ma'rifatparvar va so'z mulkingning sultoni bobokalonimiz Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, u yaratgan asarlarning tarjimadagi o'rni, qiyosiy tipologik tahlili haqida keltirilgan. Shuningdek, asarlarning she'riy tarjimadagi mazmun va shakl birligi masalalari va muammo janrining poetik xususiyatlarini tahlil etish va boshqa janrlar mohiyati bilan qiyoslangan. Maqolada fransuz olimlari va tarjimonlari tomonidan Alisher Navoiy ijodiyotiga xos muammo janrining asosiy jihatlari o'rganilib, tahlil qilib chiqilgan.

Kalit so'z: Tarjima, Alisher Navoiy asarlari tahlili, qiyosiy-tipologik metod, tarjimada ma'no va poetik xususiyatlar, semantik tahlil, muammo janri va tahlil.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни и творчестве нашего великого просветителя и султана слова, нашего предка Алишера Навои, роли его произведений в переводе, сравнительнотипологическом анализе. Также сопоставляются вопросы единства содержания и формы в поэтическом переводе произведений и анализ поэтических особенностей проблемного жанра и сущности других жанров. В статье анализируются основные аспекты проблемного жанра, присущие творчеству Алишера Навои французскими учеными и переводчиками.

Ключевые слова: Перевод, анализ произведений Алишера Навои, сравнительно-типологический метод, смысловые и поэтические особенности в переводе, семантический анализ, проблемный жанр и анализ.

Annotation: This article tells about the life and work of our great ancestor Alisher Navoi, the great enlightener and the sultan of the word property, the role of his works in the translation, a comparative typological analysis. It also compares the issues of unity of content and form in the poetic translation of works and the analysis of the poetic features of the problem genre and the essence of other genres. The article analyzes the main aspects of Alisher Navoi by French scholars and translators.

Keywords: Translation, analysis of Alisher Navoi's works, comparative-typological method, meaning and poetic features in translation, semantic analysis, problem genre and analysis.

Butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlangan bobokalonimiz hayoti haqida haqidagi ma'lumotlarning deyarli barchasi saqlanib qolgan va uning me'rosini xalqimiz chuqur o'rganmoqda. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog'liq rivoyat va afsonalar ham talaygina, Chunki bunday zotlarning yashash tarzi, qilgan ishlari ibrat, aytmish so'zlari haqiqatdir. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga yana bir bora nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor kurrai zaminning har nuqtasiga bir xil nur sochayotgan quyosh ko'z oldimizda gavdalanadi. Shu o'rinda shoirni quyoshga o'xshatish bejiz emas. U yaratgan asarlarning har bir satrida, har bir baytida quyosh nurlaridek iliqlik, saxiylik, go'zallik sevgi va muhabbat, mehr va sadoqat ufurib turadi. Uning asarlaridagi har bir baytlardan, balki qilgan yaxshi amallaridan hamda davlat boshqaruvida olib borgan oqilona siyosatidan, shaharlarda qurdirgan imoratlaridan ham ibrat olsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shuning uchun ham dunyodagi ko'plab adabiyotshunos olimlar shoir ijodiga yuksak baho berib, uning asarlarini xoriy tillarga tarjima qilganlar. Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analari zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Navoiy nafaqat o'zbek

tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli (forsiy tildagi taxallusi Foniyy) meros qoldirgan. Uning forsiy merosi XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab ilmiy tadqiqotlar ob'jektiga aylandi hamda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Shu o'rinda ayni masalani maxsus o'rgangan tojik adabiyotshunosi, akademik Abdug'ani Mirzoyevning "Foniyy va Hofiz" maqolasidan quydagi so'zlarni keltirishni muhim deb bilaman. "Umuman, Alisher Navoiyning mana shu ikki javobiya g'azalida yangi ma'no va nozik badiiy tasvir ma'lum darajada ko'p va marohat bilan ishlatilgan bo'lib, bo'lib bularni XV asrning ikkinchi yarimdagi butunlay mustaqil va birinchi darajali fors-tojik she'rlariga aylantirgan. Bu holat "Foniyy" devonida tasodifiy bir hodisa emas. Alisher Navoiyning fors-tojik she'riyatida ham ustozligi va yuksak mahurat ko'rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g'azallarining har birida, ma'lum darajada, aniq ko'rish mumkin". Demak, shoirning forsiy tildagi merosi fors adabiyotining eng yuksak namunalari bilan bellasha oladi. Shoir she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, "Badoye ul-biyoda" ("Badiiylik ibtidosi") nomli devonini 1472-1476-yillarda sultonning amriga ko'ra, shoirning o'zi kitob qilib yaratdi. 1485-1486-yillarda ikkinchi devon "Navodir un-nihoya" ("Nihoyasiz nodirliklar") maydonga keldi. Navoiyning eng katta orzusi yirik dostonlar yozish, birinchi navbaatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) dan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan "Xamsa" yaraatish edi. Chiqishdagi an'analarga ko'ra, she'rning qadri buyuk edi. She'rning masnaviysi ham alohida e'tiborda kelardi. Masnaviy esa asosan, doston deganidir. Keng qamrovli voqeaband asarlar mana shu janrda yozilgan. Jumladan, Nizomiyning "Panj ganj" nomi bilan tarixga kirgan "Xamsa" sig'a yuz yil o'tgach, Xusrav Dehlaviy (1253-1325) javob qildi. Lekin bu ikkala adib ham turk bo'lishlariga qaramay, odatga rioya qilib, asarlarini fors tilida yozgandilar. O'z xalqining shunday xazinadan bebahra qolishi Navoiyni qiynaydi. Uning uslubi tizimida hashamatli biro hang ham yuradir, sochimda esa og'irlashib qoladir. Yana biroz ingichkaroq qaraganda bir shoir uslubining asar mavzuiga ko'ra o'zgariganini haam ko'rishimiz mumkin. Navoiyning "Layli va majnun" idagi o'ynab qaynag'an uslubini uning "Lison-ut tayr"ida ko'rib bo'lmaydir. Biroq bu o'zgarishlar (ya'ni: asarning shakli yo mavzuiga ko'ra bo'lgan o'zgarishlar) asosiy

emasdir¹. Bunda muallifning badiiy uslubi muhim ahamiyat kash etadii. Badiiy uslub har bir yozuvchi-san'atkorning, har bir yetuk asarning, har bir davr adabiyotining o'ziga xos barcha xususiyatlarini qamrasa, badiiy metod muayyan guruhga mansub san'atkorlar ijodining umumiy va mushtarak barcha belgilarini o'zida qamrab oladi. Bu xususiyat va belgilar hayot materialini tanlash, umumlashtirish, baholash, aks ettirish borasidagi umumiylik va ayni paytda, ana shu umumiylikning yakka shaxs ya'ni yozuvchi sifatida talanti, qudrat ila yetuk shaxs bo'lib yetishishidir. Bundan ko'rinib turibdiki, garchi uslub va metod bir-biriga o'xshamasada, lekin ular birlashganda, bir-biri bilan chatishganda voqe bo'ladilar, ana shundagina ular yaratish hislatiga, ta'sirdorlik fazilatiga, go'zallikni bunyod etishga qodirlikni kasb etadi. Alisher Navoiy ijodiga qiziqish jahon miqyosida ham shoir hayotligidan to bugungi kunga qadar pasaygani yoq Aksincha kuchayib bormoqda. Uning asarlari va g'azallari xorijliklar tomonidan ingliz, fransuz, nemis, rus va boshqa tillarga tarjima qilishga bo'lgan urinishlar buning yaqqol isboti hisoblanadi. Albatta, xorij adabiyot ixlosmandlari uchun alloma asarlaridagi teran falsafa, go'zal tashbehlar, she'riy san'atlar rang-rangligi nihoyatda qiziqarlidir. Shoir ijodidagi umuminsoniy g'oyalar Yevropa Uyg'onish davriga turtki bo'lgan g'oyalarga hamohangdir. Shu o'rinda Navoiydan bir asr keyin ijod qilagn Shekspir o'z drama va sonetlari orqali komil inson g'oyasini targ'ib etgan. Shekspir 154 sonetidan 126 tasini ideal do'st obraziga bag'ishlaydi. U do'st timsolida komil insonni ko'rishni istaydi. Do'st timsoli orqali butun Evropani farzand ko'rishga undaydi. Sababi shundaki, shoir yashab o'tgan paytlarda Yevropada o'lat kasalligi tarqab, qit'a deyarli inqirozga yuz tutgandi. Mana shunday og'ir davrda Uyg'onish davri shoirlari Shekspir, Petrarka, Choser ijodida Navoiy tarannum etgan insonning buyukligi, koinotning yaratilishidan muddao aynan odam ekanligi, uning qadri haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi. Aynan shu g'oyalar Yevropa Uyg'onish davriga turtki bo'ldi. Bu aloqadorlikning sababi millatlar o'rtasida adabiy ko'priq vazifasini o'tab kelayotgan tarjima san'ati bilan bog'liq. Shu o'rinda Shekspir italyan tilini yaxshi bilgan va italyan soneti asoschisi Franchesko Petrarka ijodiga nihoyatda qizqqan. Sharqda Navoiy turkiy til mavqeini ko'targanidek, G'arbda Shekspir italyan sonetining temir qonuniyatlarini o'zgartirib, ingliz sonetining o'zgarmas vaznini

¹ Fitrat, 28-bet.)

yaratdi. 1589-1613 yillarda Shekspir Yevropani kezib chiqqan Tabriziyning “asari”ni o‘qigan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bu sohada jiddiy tekstologik tadqiqotlar olib borilsa, Navoiy ijodining G‘arbga ta’siri masalasi yanada oydinlashadi Navoiy g‘azaliyoti va Shekspir she’riyati o‘rtasidagi farq shundaki, Shekspir soda o‘xshatishlar orqali komillikka ishora qilgan bo‘lsa, Navoiy tashbehtar va murakkab so‘z o‘yinlari, turli qochirimlarini qo‘llaydi.

Istiqlolga erishganimizdan keyin O‘zbekistonda Navoiy ijodiga, ulkan merosiga e’tibor o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi va G‘arbda ham qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda ulug‘ shoir ijodi namunalarini jahon xalqlari tillariga tarjima qilishga qiziqish kuchaygani e’tiborlidir, Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek lirikasi Navoiydek buyuk ijodkor tajribasi bilan yog‘irilgan bo‘lib, o‘zida ana shu ilmni namoyon qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda alloma ijodini qiyosiy-tipologik o‘rganish tilshunos va tarjimashunos oilmlar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Albatta, ritmni yaratishda qofiya ham, band ham ishtirok etadi ,lekin ular faqat o‘lchov, metrikaga aloqador (jumladan, qofiys misralar oxirini eslatadi; erkin vaznda qat’iy tartibli band yo‘q) bo‘lmagani uchun ularni alohida o‘rganish va aytilgan ushbu mulohazani doimo esda tutish ma’quldir. O‘zbek she’riyatida ikkinchi aruz sistemasi ham bor. A.Fitrat yozganidek, aruz bu-arablamikdir.Ulardan forslarga o‘tgan va arab aruzi tuzatilib, kamchiliklari to‘ldirilib, arab-ford aruzi holiga keltirilgan. Arab-fors aruzi O‘rta Osiyo xalqlari poeziyasiga ham kirgan, “Qutadg‘u bilig‘”(XI) o‘zbek she’riyatidagi aruzda yozilgan dastlabki asar hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, muammo janri boshqa lirik janrlarga nisbatan shaklan sodda tur bo‘lib, bunda asosan so‘z o‘yini va shu bilan birga qofiyali tuzulishiga e’tibor qaratildi.

Muammo (arab.-ko‘r, qilingan) – o‘zbek mumtoz adabiyotida she’riy janr, poetik san’at turidir. Unda biror so‘z, ism (yoki bosh harflari), sana va boshqa yashirilib beriladi. Ko‘pincha bir bayt, ba’zan esa ikki baytdan iborat bo‘lib, unda biror so‘z yoxud fikr so‘z o‘yni asosida yashiringan bo‘ladi.

Shu o‘rinda misol tariqasida fransiyalik olimlar tomonidan Alisher Navoiy asarlaridan biri “Mufradot” muammo janriga oid ilmiy merosi talqin qilingan. Fransiyalik

olim va noshirlar yirik qomuslarida A.Navoiyni targ'ib qilishga keng o'rin bermoqdalar. Lui Bazan, Jan-Pol Ru, Bakye-Grammon singari turkiy tillar bo'yicha yirik tadqiqotlar yaratgan olimlar qatorida Remi Dorning ham bu boradagi xizmatini alohida ta'kidlab o'tmoq joizdir. Uning Vatanimizda yashab, o'zbek tili va madaniyati tarixiga bag'ishlab tadqiqotlar yaratayotgani diqqatga sazovozdir. Olim rahbarligida o'zbekcha- fransuzcha va fransuzcha-o'zbekcha lug'atlar nashr qilindi. U shoir Navoiy merosini, jumladan, "Mufradot" risolasini tahlil qilib, muammo janriga doir "Alisher Navoiy muammolari" (Parij,2006) tadqiqotini nashr ettirdi.

"L'enigma de nom propre" ("Ism yashirgan muammo") deb nomlangan tarjima to'plami esa 151 betdan iborat bo'lib, 99ta o'zbekcha ismga yozilgan muammo tarjimasini o'z ichiga oladi. To'plam muqaddimasida muammo janrining Sharq va G'arb adabiyotida tutgan o'rni, rivojlanish tarixi, shoir hayoti va ijodi, uning mazkur janrga oid asarlariga to'xtalib o'tilgan. Muallif o'zbek she'riyatini puxta tushunish uchun zarur adabiyotlar va ularning mualliflar ro'yxati, muammo yozish qonun-qoidalari, bu janrga xos badiiy san'at turlari, muammoni yechish kaliti-arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi, abjad hisobiga doir ma'lumotlarga ham to'xtalib, fransuz kitobxoniga bu janr mohiyatini ochib berdi.

Muammo janri dunyo adabiyotida turli nom va shakllarda rivojlangan. Fransiyada bunday harfiy o'yinlar XV asrgacha qo'llanilgan. Ularda shoir ismidagi harflar she'r misralariga yashirilgani bois "yashiringan imzo" deb nomlangan. XV asrda yashagan Fransua Viyonning deyarli barcha asarlari anagramma nomi ostida ushbu jnarda yozilgan. XVII-XVIII asrga kelib mazkur san'at Fransiyada biroz unutilgan bo'lsa-da, biroq Rossiya va Italiyada anagramma, akrostix va boshqa harfiy o'yinlar shaklida rivojlandi. Hozirda ham bu mamlakatlarda ayni ilmni o'rganuvchi ko'plab uyushma va jamiyatlar bor. Tarjimon muammoning dunyo adabiyotida ikki toifaga bo'linishi va ular alohida o'rganilishini ta'kidlaydi. Topishmoqlar birinchi toifaga mansub bo'lib, ularda biror so'z yashiringan bo'lsa, ikkinchi toifadagi asarlarda harflar yashiriladi va ular o'zbek adabiyotidagi muammo san'atiga mos keladi. Fransuz olimi M.Bemassoni yashiringan

soʻzini topishga asoslangan yetti janr borligini aytadi². Ular bir soʻzning boshqasi bilan aloqasi, ohangdoshligi, etimologiyasi, harflar va tovushlar soni bilan bogʻliq. Bu soʻz oʻyini fransuz tilida “griphos”-harf soʻzidan olingan boʻlib, bir soʻzga harf qoʻshish yoki undan harf ayirish orqali yangi soʻz yasaladi. Muammolarni fransuz tiliga oʻgirish jarayonida Remi Dor uchun L. Zohidovning “Alisher Navoiy ijodida muammo janri” nomli qoʻllanmasi asosiy manba boʻlgan. Muammolar esa Navoiyning “Devoni Foni”, “Risola-I Mufradot”, “Navodir ush-shabob” asarlaridan olingan. Bu uch asarda muammolar soni 500dan ziyod, boʻlib 121tasi “Risola-i Mufradot”da qayd qilingan. Fransuz mutarjimi Navoiyning forsiy muammolarida L.Zohidovning oʻzbek tilidagi tarjimalaridan foydalangan boʻlsa ham, koʻproq asliyatga tayanib ish koʻrgan. “Alisher navoiy asarlari tilining izohli lugʻati”, Oʻzbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat” hamda fransuz tilshunosi Jilber Lazarning forsha-fransuzcha lugʻati muammolarini fransuzchaga oʻgirishda yordamchi manba boʻlib xizmat qilgan³. Muallif XV asr oʻzbek sheʼriyatiga xos muhim xususiyatlarini tushunish uchun E.Rustamovning “Oʻzbekskaya poeziya va pervoy polovine XV veka” nomli asariga murajaat qilishni tavsiya etadi.

Shu oʻrinda Remi Dor muammoni muakkab, mavhum, noaniq bir olamga qiyos etgan. Uning soʻmoqlari koʻp-u, biroq koʻzga gʻira-shira koʻrinadi. Bu janrga shoir oʻz gʻoyalarini shunchalar qisqa, loʻnda ifodalaydiki, dabdurustdan biror maʼnoni anglab boʻlmaydi. Muallif koʻproq muammo yechimini koʻrsatadi-yu, yechish usullarini sir tutadi. Bunda oʻquvchi ham, tarjimonga ham puxta bilim va keng dunyoqarash qoʻl keladi. Shuning uchun Navoiy davrida muammo shoirlar mahoratini baaholash mezoni sanalgan, jamiyat aʼzolari uchun esa aqlni charxlash, fikrni takomillashtirish vositasi boʻlgan. Reni Dor fikricha, oʻzbek sheʼrlari asarlarini fransuz sillabiaksida asliyat vazniga bir boʻgʻin qoʻshish orqali oʻgirish mumkin. Bunda ayrim istisno holler ham boʻlishi oʻz-oʻzidan ayon, albatta. Tarjimada bayt aniq va chiroyli oʻqilishi uchun, doim urgʻu qator oxiriga tushirilgan. Bunda tarjimonga fransuz tilining hozirgi zamon lugʻati qoʻl kelgan. Ushbu lugʻatda aksini topmagan soʻzlarga esaa izoh berib oʻtilgan. Uning baytlarda qofiyani

² M.Bemasconi, “Histoire des enigmes”, Paris:PUF,1964.

³ “Dictionnaire person-francais”, Teheran,1996

saqlashga harakat qilgan, baʼzan esa faqat assonans-hamohanglik bilan kifoyalangan. Oʻzbek tilidagi qisqa tovushlarini ifodalashda elliziyadan (oxirgi harf unli boʻlgan soz birinchi harf unli boʻlgan soʻz oldidan kelganda yoki unli tovushlar ketma-ket kelganda bir unlikning talaffuzda tushib qolishi) foydalangan. Bu vaznni, oʻlchovni saqlab qolishga yordam beradi. Toʻplam har jihatdan puxta tuzilgan. Dastlab muammoning tarjimasini, soʻng oʻzbekcha asliyatini berilgan. Agar muammo forsiyda bitilgan boʻlsa, avval oʻzbek tiliga oʻgirilgan shakli, keyin esa asliyat keltirilgan. Ilova qismida yechimdagi ismlar maʼnosi, ularning etimologiyasiga doir axborot berilgan. Bunda E.Begmatovning “Oʻzbek ismlari maʼnosi”, F. Sumerning “Sumerning “Turk devletlari tarixida shahis adlari”(Istanbul,1999,2-jild),R. El-Hayatining “Le Livre des prenomms du Maghreb et du Moyen-Orient (Casablance,2004) kabi qoʻllanmalardan foydalanilgan. Navoiy bir ismga bir nechta muammo bitgan. Remi Dor misol tariqasida ulardan birini tarjima qiladi.Muammolar manbalarining indeks koʻrsatkichi majmuaning soʻnggi sahifalarda keltirilgan. Muallif ushbu toʻplab ilmiy yoki pedagogik ahamiyatga ega emasligini qayd etib, yagona maqsadi Alisher Navoiydek buyuk shoirning nazmiy duru javohirlari bilan fransuz kitobxonini tanishtirishdan iborat ekanligini taʼkidlaydi.

Demak, bundan kelib chiqiladiku ulugʻ, mutaffakir, soʻz mulkining sultoni Navoiyning asarlari dunyo yuzini koʻrdi, hamda bir qancha tillarga tarjima qilinib ular ustida tadqiqotlar olib borilgan. Va albatta, oʻrganilib chiqilmoqda. Uni quyoshga oʻxshatsak-butun yer yuziga birdek nur taratib, butun borliqni quyosh nurlari bilan siylamoqda.

Xulosa qismida shuni aytishimiz mumkinki, badiiy adabiyotimizning nodir namunalari bir qancha xorijiy tillarga tarjima qiliqnayotgan bir paytda ushbu jarayonni kuzatib hamda tahlil etish, tom maʼnoda aytganda, ularning taqdiriga befarq boʻlmaslik har birimizning maʼnaviy burchimizdir. Zero maʼlum bir millatning maʼnaviy va moddiy boyligi ana shu millat hayoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Xususan, turkiy tilning jozibasi va goʻzalligini koʻrsata olgan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning asarlari ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Mazkur klassik adabiyot namunalari bugungi kunga qadar bir nechta tillarga tarjima qilingan boʻlib ularning mazmun mohiyati chuqur oʻrganilib kelinmoqda.Shu bilan birga muammo janri turkiy xalqlarning topqirlik hamda

bilimdonlik mahoratini o'zida aks ettirib kelar ekan, ularni tarjimada berish jarayonini chuqur o'rganishimiz lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzoyev A. "Foniy va Hofiz" // Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. T, 1968,64-bet
2. I.A.Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod,siyosat, mafkura.-T.:O'zbekiston., 1996
3. Pirmqul Qodirov. Til va el /Badialar / - Toshkent:Ma'naviat., 2010
4. Qozoqboy Y, Qosimov B, Valijon Qodirov,Yo'ldoshbekov J. 7-sinf darslik.: Toshkent 2017.
5. saviya.uz <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik.mufradot-ning-fransuzcha-talqin/>
6. Muammo <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muammo>
- 7.M.Bemasconi, ``Histoire des enigmes``, Paris:PUF,1964
- 8.``Dictionnaire person francais``Teheran, 1996.